

## Buxoro viloyatidagi korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot


O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 01.02.2020 yil holatiga shakllantirildi




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## Yuridik shaxs bo'lgan korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

2015-2020 yillarda 1-fevral holatiga, fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-fevral holatiga 24 961 tani tashkil etib, ulardan 23 769 tasi yoki 95,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4816 taga yoki 23,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar oyi davomida viloyatimizda 419 tadan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 680 taga ko'pdir.

## Ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni (2020-yil 1-fevral holatiga, birlikda)



### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyatini bilan bo'lib zarar uchun o'zlar qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.


## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga)*


*birlik*




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1-fevral holatiga)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-fevral holatiga)




## Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-fevral holatiga, birlikda)




2020-yil 1-fevral holatiga 20 413 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 3528 ta, oilaviy korxonalar – 1 867 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 14 674 ta, unitar korxonalar - 152 ta va boshqalar – 192 tani tashkil etgan.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar oyida)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni




### Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiyligi sonidagi ulushi (2020-yil yanvar oyida)



2020-yilning yanvar oylarida 419 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,1 martaga ko'pdir. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 322 ta, xususiy korxonalar – 39 ta, oilaviy korxonalar – 43 ta, muassasalar 8 ta va 7ta boshqalarni tashkil etdi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxona va tashkilotlar tarkibi

(1-fevral holatiga)  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar

(2020-yil 1-fevral holatiga, birlikda)




- Ishlab chiqarish sanoat
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020-yil 1-fevral holatiga sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 614 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,1 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 124,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 168,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,5 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 2,1 barobarga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 107,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.

## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-fevral holatiga, birlikda)




2020-yil 1-fevral holatiga qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 489 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,0 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, binolar va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 124,9% ga (jami qurilishdagi ulushi 66,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 98,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 141,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 25,5 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-fevral holatiga, birlikda)



2020-yil 1-fevral holatiga savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 850 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,5 % ga oshdi. Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 140,1 % ga (jami savdodagi ulushi 63,2 %), avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 130,9 % ga (jami savdodagi ulushi 29,4 %), avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 119,5 % ga (jami savdodagi ulushi 7,4 %) o'sishidir.

## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonava tashkilotlar soni (2020-yil 1-fevral holatiga, birlikda)



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1-fevral holatiga, birlikda)



**363**  
yashash bo'yicha  
xizmatlar




**1 506**  
oziq-ovqat mahsulotlari  
va ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-fevral holatiga yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1869 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 148,0 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 147,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 80,6 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 149,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 19,4 %) o'sishidir.


## Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-fevral holatiga, birlikda)



2020-yil 1-fevral holatiga axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 246 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,7 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 133,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,9 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 112,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 25,6 %), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 120,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,2 %) dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 66,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,6 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 129,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 28,5 %), aloqa xizmatlarning – 112,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 25,2 %) o'sishidir.

## Oilaviy korxonalar soni (1-fevral holatiga, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 1 974 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 855 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 867 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 798 taga yoki 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 107 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 57 taga yoki 2,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, (1-fevral holatiga, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 15 358 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 513 taga yoki 129,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 674 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 358 taga yoki 129,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 684 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 155 taga yoki 129,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

2020 y.




- Savdo
- Sanoat
- Boshqa turlari
- Qurilish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2019 y.



**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, yanvar oylarida birlikda**



**Tuman kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxona soni  
(2020-yil 1-fevral holatida, birlikda)**

	<b>Jami</b>	<i>shundan:</i>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>279</b>	<b>156</b>	<b>123</b>
<b>Buxoro sh.</b>	<b>146</b>	<b>72</b>	<b>74</b>
<b>Kogon sh.</b>	<b>15</b>	<b>11</b>	<b>4</b>
<b>Olot</b>	<b>6</b>	<b>1</b>	<b>5</b>
<b>Buxoro</b>	<b>10</b>	<b>8</b>	<b>2</b>
<b>Vobkent</b>	<b>7</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>11</b>	<b>6</b>	<b>5</b>
<b>Kogon</b>	<b>22</b>	<b>19</b>	<b>3</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>8</b>	<b>3</b>	<b>5</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>8</b>	<b>5</b>	<b>3</b>
<b>Peshku</b>	<b>17</b>	<b>7</b>	<b>10</b>
<b>Romitan</b>	<b>9</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<b>Jondor</b>	<b>11</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>9</b>	<b>7</b>	<b>2</b>

**Buxoro viloyatida xorijiy davlatlarining kapitali  
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
*(2020-yil 1-fevral holatiga, birlikda)*


	<b>Jami</b>	<b>shundan:</b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
Rossiya Federatsiyasi	<b>54</b>	<b>33</b>	<b>21</b>
Turkmaniston Respublikasi	<b>37</b>	<b>14</b>	<b>23</b>
Turkiya Respublikasi	<b>33</b>	<b>23</b>	<b>10</b>
Xitoy xalq Respublikasi	<b>31</b>	<b>18</b>	<b>13</b>
Afg'oniston Respublikasi	<b>19</b>	<b>7</b>	<b>12</b>
Koreya Respublikasi	<b>22</b>	<b>11</b>	<b>11</b>
Eron Islom Respublikasi	<b>13</b>	<b>8</b>	<b>5</b>
Amerika qo'shma shtatlar	<b>11</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
Hindiston Respublikasi	<b>8</b>	<b>3</b>	<b>5</b>
Boshqa mamlakatlar	<b>51</b>	<b>33</b>	<b>48</b>

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2020-yil 1-fevral holatida, birlikda)




## 2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda




## Tumanlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida taqsimoti, %



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Buxoro shahri 4 833 ta (jamidagi ulushi 33,0 %), Romitan 1 528 ta (10,4 %), G'ijduvon 1 415 ta (9,6 %), Jondor 1 121 ta (7,6 %), Buxoro 1 054 ta (7,2 %), Peshku 949 ta (6,6 %), Shofirkon 810 ta (5,5%) va Kogon 752 ta (5,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamroq o'sishi Qorako'l 529 ta (3,6 %), Kogon shahar 499 ta (3,4 %), Qorovulbozor 334 ta (2,3 %), Olot 250 ta (1,7 %), Vobkent 600 ta (4,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Tumanlar kesimida kichik korxona va mikrofirmalarning faollik holatlari bo'yicha tarkibi, (2020-vil 1-fevral holatiga. iamida nisbatan ulushi. %)




2020-yil 1-fevral holatiga kichik korxona va mikrofirmalar soni 20 278 tani tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,1 % ga ko'pdir. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Buxoro shahri (6 735 ta), G'ijduvon (2 099 ta), Romitan (1 744 ta) va Buxoro (1 514 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Qorovulbozor (394 ta), Olot (533 ta), Kogon sh. (804 ta), Vobkent (846 ta), hamda Qorako'l (1 055 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Tumanlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni <sup>*)</sup>	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.02.2019 yil	01.02.2020 yil
Buxoro viloyati	512 987	15 836	20 278
Buxoro sh.	87 175	5 401	6 735
Kogon sh.	15 915	568	804
Buxoro	41 422	1 151	1 514
Vobkent	36 097	663	846
Jondor	45 425	1 048	1 313
Kogon	20 712	823	1 055
Olot	26 322	435	533
Peshku	33 176	930	1 178
Romitan	34 895	1 269	1 744
Shofirkon	44 721	906	1 104
Qorako'l	41 919	747	959
Qorovulbozor	5 322	273	394
G'ijduvon	79 886	1 622	2 099

## 2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha soni, birlikda





2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Buxoro sh. (10 ta), Kogon sh. (7 ta), Peshku (5 ta), Romitan (4 ta), G'ijduvon (4 ta), Vobkent (4 ta), Buxoro (3 ta), Jondor (2 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Shofirkon hamda Qorovulbozor tumanlarida yangi oilaviy korxonalar tashkil etilmagan, Kogon (1 ta), Qorako'l (1ta), Olot (2 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'satkichi past darajani aks ettirgan.

### Shahar va tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(2020-yilning yanvar oyida, birlikda)*

soni, birlikda

O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnomalaridagi, vaqtiga-saqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriderda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI DAVLAT STATİSTİKA QO'MİTASI". On the left, there's a sidebar titled "RASMIY STATİSTİKA" with links like "Elon qılısh tayimi", "Metamateriallar", "Makroekonomik", "Mily hizmetlar", "Narx va indekslar", and "Investitsiyalar". The central part of the page features a search bar with the placeholder "Korxona pasporti" and a QR code below it. To the right, there's a section titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Anholni royxaga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", "Press-relestar", "Choraklik nafzai", "Nashrlar - statistika hajdu", and "Hujdalar mazkuralar".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



**Statistik registrlarni yuritish**

**Tel.:71-230-83-20 (21)**

